



Axborot xabarnomamizning to'rtinchi soniga xush kelibsiz!

[Yevropa Ittifoqining](#) (YI) [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasi bo'yicha axborot xabarnomamizning to'rtinchi soniga xush kelibsiz. Bizning loyihamiz O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishligi orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha rivojlanish rejalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ushbu son 2021-yilning iyul-sentabr oylarida ushbu loyiha doirasida o'tkazilgan tadbirlarni yoritadi. Bu sonda siz yaqinda taqdim etilgan texnik ko'mak haqida, shuningdek, O'zbekistonning (JSTga) a'zo bo'lish shartlari bo'yicha muzokaralarga aloqador bo'lgan O'zbekistonning davlat xizmatchilari va tegishli idora vakillarining salohiyatini oshirish uchun tashkil qilingan qator treninglar haqida batafsil ma'lumot topasiz. Axborot xabarnomamizning ushbu soni qamrab oluvchi so'nggi 3 oy ichida xususiy sektor uchun JSTga a'zo bo'lishning afzalliklari va uning natijasida biznes uchun ochilishi kutilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumot beruvchi tadbir tashkil etildi.

Nihoyat, loyiha asosida uzoq muddat davom etadigan amaliy natijaga erishildi, ya'ni Shveytsariyaning mashhur Jahon Savdo Instituti (Bern Universiteti, Shveytsariya) bilan Toshkentda Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti (JIDU) uchun Savdo huquqi va Amaliyoti bo'yicha maxsus akademik kursni ishlab chiqish to'g'risida bitim imzolandi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу обунани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Bizning faoliyatimiz va bugunga qadar erishgan yutuqlarimizni yaxshiroq tushunishingiz uchun biz ularni quyida berilgan loyihamiz doirasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan 5 ta maqsaddan kelib chiqib quyida berilgan toifalarga ajratdik.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

A'zo bo'lish jarayonining asosiy qismi JST a'zolariga muzokaralar uchun zarur bo'lgan amaldagi savdo-iqtisodiy siyosat haqida yangilangan ma'lumotlarni taqdim etishdir. Shu asosda loyiha (JSTga) a'zo bo'lish jarayoniga taaluqli bo'lgan hujjatlarini ko'rib chiqish va ishlab chiqishda maslahat ko'magini taqdim etishni davom etmoqda. Ushbu davr mobaynida O'zbekiston tashqi savdo rejimi to'g'risida birinchi **Faktologik xulosanining** 2021 yilning iyul oyida chiqishi eng muhim voqea bo'ldi. Loyiha, shuningdek, Ishchi guruhning 5-yig'ilishi uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni tayyorlashda ham ko'mak ko'rsatdi, ya'ni Ishchi guruhining 4-yig'ilishidan so'ng JST a'zolari tomonidan berilgan savollarga javoblarni berish uchun, shuningdek, qayta ko'rib chiqilgan **Qonunchilik chora-tadbirlari rejasi va O'zbekiston qonun hujjatlarining** ingliz tilidagi ro'yxati kabi hujjatlarni tayyorlashda yordam berildi.



O'zbekistonning oliy darajali delegatsiyasi iyul oyida Jenevaga tashrif buyurib XSM rahbari bilan uchrashdi va treningda ishtirok etdi

O'zbekiston Investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o'rinbosari janob Badriddin Abidov delegatsiyaning Jenevaga tashrifi davomida JSTga a'zo bo'lish uchun mamlakatni qo'llab- quvvatlash bo'yicha milliy loyihani amalga oshirishda erishilgan yutuqlarni olqishladi va muzokaralar davom etar ekan, bu sur'atni saqlab qolish niyatini bildirdi.

Bundan tashqari, loyiha 2021 yilning iyul oyida Investitsiya va tashqi savdo Vaziri o'rinbosari janob Badriddin Abidov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasining JST Kotibiyati bilan uchrashish va asosiy savdo hamkorlari bilan ikki tomonlama muzokarlarda ishtirok etish uchun amalga oshirilgan Jenevaga tashrifini tashkillashtirishda amaliy ko'mak ko'rsatdi.

Delegatsiya shuningdek, loyihaning amalga oshish jarayonini va o'zaro hamkorlikning keyingi qadamlarini muhokama qilish maqsadida XSMning ijrochi direktori Pamela Kok-Gamilton xonim bilan uchrashdi.

Ushbu tashrif mobaynida O'zbekistonning yetti nafar yuqori martabali mulozimlari 2021-yil 23-iyulda XSM tomonidan tashkil etilgan o'quv seminarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Jahon iqtisodiyotida global ishlab chiqarish va savdo zanjirlari hukmronlik qilayotgan bir paytda, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv dinamikasi masalalari ko'rib chiqildi, shuningdek, JST doirasida bo'lib o'tadigan muzokaralarning tarixiy sharhi taqdim etildi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lishning eng muhim talablaridan biri muayyan milliy qonunlarning JST shartnomalariga muvofiqligini ta'minlashdan iborat. Loyiha intellektual mulk huquqlari bo'yicha **O'zbekiston milliy qonunchiligini JSTning TRIPS shartnomasi va intellektual mulk bo'yicha tegishli xalqaro konvensiyalarning**, ya'ni Parij konvensiyasi va Bern konvensiyasi talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan tahlil qilish ishini davom etdi.

2021 yilning sentyabr oyi oxiriga kelib O'zbekistonning barcha qonunchiligi (intellektual mulk huquqlari bo'yicha) TRIPS kelishuvi bilan taqqoslandi, JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokarlarga ko'maklashishga qaratilgan tegishli tavsiyalar milliy hamkorlarga topshirildi.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Bizning loyihamiz JST shartnomalari va JSTning huquqiy asoslari bilan bog'liq masalalarni davlat xizmatchilari tomonidan tushunish darajasini oshirish uchun salohiyatni o'stirish bo'yicha o'quv tadbirlarini tashkillashtirishni davom ettirdi. Shu maqsadda quyidagi o'quv treninglari tashkil etildi:

- Xizmatlar savdosi va Xizmatlar savdosi Bosh shartnomasi (GATS) asosiy masalalariga bag'ishlangan to'rt kunlik seminarlar seriyasi, xususan, ushbu masalalar sirasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha muzokaralar, xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlar ro'yxati kiritilgan, shuningdek moliyaviy xizmatlar savdosi bo'yicha maxsus sessiya ham tashkil qilingan
- JST qoidalariga muvofiq sanoat siyosatini amalga oshirish bo'yicha seminar

Bizning loyihamiz shuningdek, Shveytsariyaning Bern shahrida 2021 yil iyun-iyul oylarida Jahon Savdo Instituti (JSI) tomonidan tashkil etilgan Yozgi akademiyaning bir haftalik (onlayn) kurslarida to'rt nafar ITSV xodimlari ishtirok etishlariga ko'mak berdi. ITSV xodimlari quyidagi kurslarga qabul qilindilar:

- Xalqaro investitsiya huquqi va nizolarni hal qilish
- Savdo va qishloq xo'jaligi: yangi chaqiriqlar
- Savdo va barqaror rivojlanish

Shu bilan birga, ushbu son qamrab olgan davr mobaynida JST va savdo siyosati bilan bog'liq mavzular bo'yicha o'quv modullarini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston universitetlaridan biri bilan hamkorlik qilish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi.

Tender jarayoni yakunlandi va shu asosda Toshkentdagi Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti (JIDU) bilan hamkorlik qilish uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilot aniqlandi. Shveytsariyaning Berndagi Jahon Savdo Instituti akademik modulni yaratish uchun hamkor sifatida tanlandi. Ayni paytda **"JST huquqi va amaliyoti"** kursini ishlab chiqish bo'yicha ishlar olib borilmoqda

2021 yil iyul va avgust oylarida O'zbekiston vakillari bir nechta o'quv tadbirlarida, shu jumladan, 2021 yil 23-30 iyul kunlari bo'lib o'tgan xizmatlar savdosi bo'yicha to'rt qismli seminarda ishtirok etdilar

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishiga tayyorgarlik doirasida mamlakat muzokarachilari "O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish" loyihasi doirasida XSM tomonidan tashkil etilgan Xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh shartnomasiga (GATS) bag'ishlangan o'quv treningda qatnashishdi. Treninglar, xususan, mamlakatning xizmat ko'rsatish sohasidagi bo'lishi mumkin bo'lgan majburiyatlari ro'yxati masalalarini, shuningdek, GATS doirasida moliyaviy xizmatlar bo'yicha ikki kunlik seminarni qamrab oldi.



4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

TBT va SFS bilan bog'liq masalalar bo'yicha mas'ul bo'lgan davlat muassasalarining institutsional salohiyatini mustahkamlash uchun ixtisoslashtirilgan texnik yordam ko'rsatish bo'yicha loyihamiz doirasida qo'llab-quvvatlash jarayoni davom ettirildi.

Ushbu ko'mak TBT bilan bog'liq qonunlarni ko'rib chiqish va ularning JST qoidalariga muvofiq kelishini ta'minlash va ularning eng oldi tajribalarni hisobga olishi maqsadida ularni isloh qilishda yordam berish bilan bog'liq bo'ldi.

Shundan kelib chiqib, shuningdek, joriy yil boshida boshlangan ishlarni rivojlantirish maqsadida, **Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonunning** yangi tahririni ishlab chiqishda kerak bo'lgan ko'mak berildi.

Bundan tashqari, yangi **Muvofiqlikni baholash akkreditatsiya qonunini** ishlab chiqishda, shuningdek, JST talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshiriladigan **Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risidagi qonun** loyihasini tarjima qilish bo'yicha yordam ko'rsatildi.

Bundan tashqari, ilgari ko'rsatilgan ko'makni rivojlantirish maqsadida 2021 yilning iyul-sentyabr oylari orasida quyidagi qo'shimcha seminarlar tashkil etildi:

- Integratsiyalashgan menejment tizimi, ya'ni ISO 9001:2015 Sifat menejmenti tizimi, ISO 14001:2015 Ekologik menejment tizimi, ISO 45001:2018 Sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligi menejmenti tizimi va ISO 50001:2018 Energetika menejmenti tizimlari bo'yicha o'quv seminari
- O'lchov nazariyasi, o'lchov noaniqligi va kalibrlashning texnik protseduralari bo'yicha, ISO/IEC 17043ga muvofiqlik laboratoriya kompetentligini laboratoriyalararo qiyosiy testlar orqali tekshirish o'quv seminarlari.

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihamizning asosiy maqsadlaridan biri ham xususiy sektor, ham keng jamoatchilikni, shu jumladan ayollar va yoshlarni JSTga a'zo bo'lish va global iqtisodiyotga muvaffaqiyatli integratsiya natijasida olinadigan afzalliklar to'g'risida xabardorligini oshirishda ko'mak berishdir. Bu oxir-oqibatda quyidagilarga yordam beradi:

- davlat idoralari va xususiy sektor o'rtasida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi masalasi to'g'risida kelishuvga erishishida
- muzokarlarda pozitsiyalarni shakllantirishda barcha manfaatdor tomonlarning fikrlarini inobatga olgan holda JST haqida bo'lishi mumkin bo'lgan noto'g'ri tushunchalarni yo'q qilishda

Ushbu maqsadga erishish uchun, 2021 yil avgust oyida O'zbekistondagi JSTga kirishni muvofiqlashtiruvchi mas'ul institut ITSV bilan hamkorlikda xususiy sektor vakillarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va shu asosda kutilayotgan natijalar to'g'risida xabardorlikni oshirish maqsadida "JSTga a'zo bo'lishning afzalliklari va muammolari " mavzusidagi seminar o'tkazildi. Tadbirda Savdo-sanoat palatasi, turli tarmoqlarga taaluqli biznes-assotsiatsiyalari va O'zbekistonning barcha hududlaridan eksport-import korxonalari ishtirok etdilar.

Bizning loyihamiz ITSV bilan yaqin hamkorlikda loyihani amalga oshirishning keyingi bosqichlarida ushbu yo'nalishda yanada ko'maklashishni rejalashtirmoqda.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)